

## “Butunjahon yer kuni”ga bag’ishlangan tanlov boshlandi

Bugun institutimizda “22-aprel- Butunjahon yer kuni” bag’ishlangan “Bizning yer, bizning kelajak” shiori ostida iqtidorli yoshlarning rasmlar va innovatsion ko’rgazmalar ishlanmasi bo'yicha tanlovlар o'z ishini boshladi. Ma'lumki, 2009-yil 22-aprelda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 63-sessiyasida “22-aprel - Butunjahon yer kuni” sifatida nishonlanishi belgilangan. Respublikamizda har yili ushbu kunga bag’ishlangan tadbirlar va tanlovlар o'tkazilib kelinadi. Shu munosabati bilan 2021-yil 15-17 aprel kunlari institutimizda “Yer resurslarini boshqarish” fakulteti tomonidan tashkil etilgan “Bizning yer, bizning kelajak” shiori ostida iqtidorli yoshlар o'rtasida tanlovlар o'tkaziladi.



Bugun ushbu tanlovlarning birinchi kuni. “Yer bizning yagona uyimiz” mavzusida rasmlar va innovatsion ishlanmalar ko’rgazmalari institutimizning iqtidorli talabalari tomonidan namoyish etildi. Tanlovning birinchi kuni bo'lishiga qaramasdan har bir fakultetlardan ijodkor, tashabbuskor, bilimga chanqoq talabalar o'zlarining ijodiy ishlari, fotosuratlar, innovatsion ishlanmalar ko'rgazmasi bilan faol ishtirok etishdi va himoya qildilar, natijalari hay'at a'zolari tomonidan munosib baholandi.



Tadbirda soha bo'yicha korxona va tashkilot vakillari, institutning ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori T.Z.Sultonov, bo'lim boshliqlari hamda Yoshlar ittifoqi faollari ishtirok etishdi. Tanlov tafsilotlari “O'zteleradiokompaniya”ning “Yoshlar” telekanali dasturi ommaviy axborot vositalarida yoritildi. Tanlovlar 16 va 17- aprel kunlari davom etadi. 16-aprel kuni “Yer jamiyat boyligining manbai” mavzusida intellektual o'yin, 17-aprel kuni “Yerni asliday-asraylik” mavzusida videoroliklar tanlovi bo'lib o'tadi. Barcha tanlov ishtirokchilarga omad tilaymiz!



**“Yer resurslarini boshqarish” fakulteti dekani muovini X.Eshova axboroti  
TIQXMMI matbuot xizmati**